

Date: 3rd November-2025

NUROTA VOHASI O‘ZBEK TILI SHEVALARINING MORFOLOGIK
XUSUSIYATLARI

Ibragimova Gulsum

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Samarqand akademik litseyi o‘qituvchisi

Abstrakt: Ushbu maqolada o‘zbek shevashunosligi sohasida olib borilgan tadqiqot ishlaridan namunalar, erishilgan ilmiy yutuqlar, sheva leksikasiga oid o‘rganilgan lug‘atlardan namunalar ham qayd etildi.

Taqdim etilayotgan mazkur ishda Navoiy viloyatining Nurota tumani va ushbu tumanga tutash tumanlar Xatirchi, Konimex, Jizzax viloyatining Forish, Samarqand viloyatining Qo‘shrabod tumanlari o‘zbek shevalarida uchraydigan birliklar o‘zbek adabiy tilida uchramaydigan ayrim so‘zlar to‘g‘risida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: sheva, lahja, ibora, Nurota, o‘zbek adabiy tili, lug‘at, qipchoq, frazema, “j”lovchilar.

Абстракт: В данной статье также приведены примеры исследований в области узбекской диалектологии, научные достижения, примеры из изученных словарей диалектной лексики.

Нуратинский район Навоийской области и прилегающие районы Хатирчи, Конимех, Форишский район Джизакской области, Кушрабадский район Самаркандской области на узбекских диалектах некоторые слова, не встречающиеся в узбекском литературном языке.

Ключевые слова: говор, словосочетание, Нурата, узбекский литературный язык, говор, словарь, кипчак, словосочетание, «ж» игроки.

Abstract: This article also contains examples of research in the field of Uzbek dialectology, scientific achievements, examples from the studied dictionaries of dialect lexicon.

Nurata district of Navoi region and adjacent districts Khatirchi, Konimex, Forish district of Jizzakh region, Kushrabad district of Samarkand region in Uzbek dialects, some words that are not found in the Uzbek literary language.

Keywords: dialect, phrase, Nurata, Uzbek literary language, dictionary, dialect, kipchak, frazema, “j” hunters.

Nurota tuman o‘zbek shevalarida adabiy tilda mavjud grammatik shaklar boshqacharoq shaklda yoki umuman boshqa shaklda uchraydi. Ushbu shevada, ko‘plik qo‘shimchasining, kelishik shakllarining, egalik shakllarining, zamon qo‘shimchalari, nisbat qo‘shimchalari, shaxs-son qo‘shimchalari, so‘z turkumlarining turlarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar va so‘z yasovchi qo‘shimchalar ham turli xilda shevaga xos shaklda uchraydi. Quyida ana shu shakllarga birma-bir to‘xtalamiz.

So‘z turkumlarini aniqlashda morfologik-leksik va sintaktik belgilar asos qilib olinadi va ular turli xildagi kategoriyalarga, guruhlariga ajratiladi. So‘z turkumlarini



Date: 3rd November-2025

guruhlashda va ajratishda, bu sohaga oid bir qancha noaniqliklarni bartaraf etish uchun chuqur mulohaza yuritib, ularni ilmiy-nazariy tomondan asoslash va isbotlashda E.D. Polivanov, X. Komilova, U. Tursunov, V.V. Reshetov, A. G'ulomov, Sh. Shoabdurahmonov kabi olimlarning xizmatlari katta bo'lgan. [9;73-118]

O'zbek shevalarining morfologiyasini ko'rsatib berishda mavjud fikrlar, nazariyalarga asoslanib ish ko'rildi. Shunga ko'ra o'zbek shevalarining morfologiyasi ham mustaqil, yordamchi so'z turkumlari va alohida olingan so'zlar (so'z turkumlari) dan iborat alohida guruhlarda o'rganiladi. Ushbu sohalarda sheva materiallarida o'zaro umumiyliklar bilan birga o'ziga xos tomonlar ham ko'zga yaqqol ko'rinadi. Bu holni kelishiklar, egalik va ko'plik kategoriyalari, fe'l zamonlari, fe'l mayllari, va fe'lning vazifaviy shakllarini o'rganish kabi turli sohalarda aniq tasavvur etish mumkin bo'ladi. Shevalar morfologiyasidagi bunday o'ziga xos tomonlar boshqa so'z turkumlari va kategoriyalarida ham mavjud. Dastlab kelishik shakllarini ko'rib chiqdigan bo'lsak, ushbu shevada ham oltita kelishik mavjud bo'lib, lekin ulardagi qo'shimchalar adabiy tildagi qo'shimchalar bilan aynan bir xil emas. Kelishik kategoriyasi otning yoki otlashgan so'zlarning boshqa gap bo'laklari bilan grammatik tarzda bog'lanishini ko'rsatadi, ularning gapdagi vazifasini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat o'zbek adabiy tili uchun ham xosdir. Adabiy tildagi kabi ushbu shevada ham 6ta kelishik, 4taagrammatik ko'rsatkich mavjud, chunki shevada ham bosh kelishikning qo'shimchasi bo'lmaydi. Shevalarning bir qismi adabiy til bilan bir xil, ayrimlari esa qisman farq qiladi. Nurota tuman o'zbek shevalarida 6ta kelishik va 4ta grammatik ko'rsatkich mavjud. Sababi tushum va qaratqich kelishiklarida aynan bitta grammatik ko'rsatkichdan, ya'ni qo'shimchadan foydalaniladi. Qaratqich kelishi ko'pgina o'zbek shevalarida tushum kelishigi shaklida keladi. Bir jihatiga e'tibor qaratishimiz lozimki, bu ikki kelishik bir xil grammatik shaklda qo'llangani bilan, ikkisi ham alohida kelishik hisoblandi. Ularning qay biri tushum, qay biri qaratqich kelishigi shakli ekanligini ular bog'langan so'z orqali bilishimiz mumkin, chunki tushum kelishigidagi so'z fe'lga, qaratqich kelishigidagi so'z otga bog'lanadi.

Bosh kelishik. Hech qanday qo'shimchaga ega bo'lmaydi. Bu xususiyat o'zbek adabiy tili uchun ham, xalq shevalari uchun ham xosdir. Bosh kelishikdagi so'z o'zining shakli jihatidan o'zak yoki negizga teng bo'ladi. Bosh kelishikdagi so'zlar gapda ega, sifatlovchi aniqllovchi, ot kesim vazifalarida keladi. Masalan, Jo'ldash o'quvchi.

Qaratqich kelishigi. Qaratqich kelishigi adabiy tilda - ning qo'shimchasi orqalari shakllandi, shevalarda esa bir qancha shakllarga ega. Bu, bir tomondan so'z o'zaklarining qattiq yoki yumshoq undosh bilan qo'ng'irlanganligiga, boshqa tomondan esa assimilyativ hodisalarga ham bog'liq deb hisoblandi. Masalan biz o'rganayotgan Nurota o'zbek shevalarida –ni, –ding, –di, –ting, –ti, –nin shakllariga ega. Ukamding daptari, ukamdi daptari. Bovqontting uyi- Bovqontti uyi. –ning va –ni qo'shimchasidan tuman markaziga yaqin qishloqlarda foydalaniladi.



Date: 3rd November-2025

Qaratqich kelishigining belgisiz qo'llanilishi ushbu tuman shevalarida ham mavjud. Masalan, tov yechkisi, ko'klam havasi, doroq barki.

Tushum kelishigi. Qipchoq guruhi shevalarida tushum kelishigi quyidagicha shakllarga bo'ladi: -di,-ti,-ni,-ni. Bulardan -ni, -ni qo'shimchalari unli bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi. Masalan, enasini aytib keldi, podani oyirib kel. Ayrim hollarda tushum kelishigi qo'shimchasi – di, -ti shakllarida ham beriladi. Masalan, enamdi ko'rdingma, ovqatti qil kabi. O'z- o'zidan ma'lumki. -di va -ti qo'shimchalri undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi. Bunda -di,- ti qo'shimchalari assimilyatsiya natijasida yuzaga kelgan hodisadir. Karimdi bazarg'a juvar, suvdi miymannarding oldig'a qo'y, hazir otti ko'rish amrimaxal, pishakti quvip ketdi.

Yuqorida qayd etilgan qaratqich va tushum kelishigi materiallarida ularning shakllari jihatdan farqlanishi aniq va yaqqol tarzda ko'rinib turibdi. Lekin bu farqlanish har doim ham barqaror bo'lavermaydi. Bu shevada boshqa lahjalardagi singari bir xil shakl kelishik- qaratqich va tushum kelishigi shaklida qo'llanilishi va o'zida ularga xos ma'no vazifalarni o'tash holatlari ham ko'zga tashlandi. Qaratqich va tushum kelishigi shakllarining umumiy qo'shimchali holati ham ushbu sheva uchun umumiy hisoblandi. Masalan bo'vaydi uch uli borikan. Mehmanna suvdi chaynak minan ichip juvardi.

Bulardan tashqari, so'zlarning o'zak-negizlarida lablanganlik-lablanmaganlik, qattiq-yumshoqlik va boshqa shu kabi qator fonetik qonuniyatlar ga muvofiq ushbu shevada -nu,-du,-tu kabi bir qancha tushum kelishigi qo'shimchalari ko'rinishlariga ham egadir.

O'rganayotgan shevamizda ham tushum kelishigi belgili holatda kelishi bilan bir qatorda belgisiz holatda kelishi ham keng tarqalgandir. Masalan, ovqat qi, uy shipir, non je kabi.

Jo'nalish kelishigi. Ushbu kelishikning adabiy tildagi qo'shimchasi- ga qo'shimchasidir. Qo'shimcha so'z oxiri undosh yoki unli bo'lishiga qaramay qo'shilaveradi. Masalan, uyga kir, ovqatga qara, otaga qara. So'zlarning oxiri k,p,s,t,sh,x, kabi jarangsiz undoshlar bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi –ka shaklini oladi.masalan tag'i bir qiyin ishka juvaramis.

Ba'zida g undoshi bilan ugagan so'zlarga -ga qo'shimchasi hech qanday o'zgarishsiz qo'shilgan holatlar mavjud. Bu holat Yangibino va Yangiobod qishloqlari va ularning atrofidagi yoki shahar markazida yashovchi o'zbeklar shevasi bilan bog'liq hodisadir. Jo'nalish kelishigining birgina tovush-a tarzda qo'shilishi ham kuzatildi. Ko'proq y,m,l,r, p, n sonor undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shib keladi. Masalan, akama ayt, bozora bordingma, saroya kirdi, qallopa duch bo'ldi kabi.

-a shakli bilan bir qatorda ushbu shevada -aa shaklidan foydalaniladi. Otamaa aytim, bizaraa nima dedi kabi.

Boshqa shevalarda unli bilan tugagan so'zlarga -ya tarzida qo'shilishi haqida fikr aytilgan, ammo Nurota o'zbek shevalarida bu holat deyarli kuzatilmaydi.



Date: 3rd November-2025

Qipchoq guruhi shevalarida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi quyidagicha ko'rinishlarga ega bo'ladi: -ga, -gə, -a, -ə, -ka, -kə. Ko'rinish turibdiki, bular qattqlik va yumshoqlik, til oldi va til orqa unlilari hamda qisman yonma-yon kelgan ayrim undosh tovushlarta'sirida yuzaga keladi va qo'llaniladi. Bu esa singormanizmning shevdagi o'ziga xos xususiyatlari biri hisoblandi. Masalan, otama massi oldik, yurakka botti, ukamaa qorong.

Jo'nalish kelishigi shakli bu shevada boshqa variantda ham uchraydi. Menga o'rnida mag'an, senga o'rnida esa sag'an shaklida ishlatiladi. Ushbu holat yuzasidan shuni aytishimiz mumkinki, -ga qo'shimchasi o'rnida -g'a, -g'an qo'shimchalri shakli ishlatiladi. Bu faqat kishilik va ko'rsatish olmoshlarigagina qo'shiladi. Qo'llanilish doiarasi birmuncha tor qo'shimchalar hisoblanishadi. Jo'nalish kelishigining ko'rsatish hamda kishilik olmoshlarining birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs birlik shakllariga ega bo'ladi. Bu holat qipchoq shevasiga oid bir qator shevalarda uchraydi. Ushbu shevadagi mag'an, sag'an, ug'an kishilik olmoshlari qozoq, qirg'iz, qoraqolpoq tillari uchun ham xosdir. Jo'nalish kelishigining kishilik olmoshlariga qo'shib ishlatilishdagi shakli boshqa grammatik ko'rsatkichlarga nisbatan shevalar vakillari orasida ancha mustahkam saqlanib kelinmoqda. Natijada ular adabiy til me'yorlarini egallagan ziyolilar va o'qituvchilar, jumladan, filolog o'qituvchilar nutqida ham uchraydi, bunday hollarda sheva vakillarining nutqiga qarab ular qipchoq shevasining qaysi biriga oidligini osongina aniqlash mumkin.

O'rin-payt kelishigi. Qipchoq lahjasini tashkil etuvchi shevalarda o'rin-payt kelishigi -da, -də, -ta, -tə qo'shimchalari bilan qo'llanadi. So'zlarning oxiri unli va jarangli undoshlar bilan tugaganda -da, -də qo'shimchasi bilan, ya'ni o'rin-payt kelishigi bilan hosil qilinadi: qo'lda bajarish shart, dayrada quri tash jo'q. Agar so'zlarning oxiri jarangsiz undosh tovushlar bilan tugagan bo'lsa, -ta, -tə qo'shimchalari qo'shiladi. Jaz jamlilchig'in tashlama, qishta o'zing bilasan.

Demak, o'zbek tili tarixini belgilovchi nodir yozma yodgorliklarda, hozirgi vaqtda amalda qo'llaniladigan adabiy til, o'zbek xalq shevalarida ham o'rin-payt kelishigi shakli bir xil yoki umumiydir, shu bilan birga ushbu shevada uning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi shakllar ham uchraydi. O'zak va asosga qo'shilishi jihatidan farqlanmaydi. Ushbu sheva vakillari orasida uchraydigan ba'zi ibora, maqollarda, sheva vakillari og'zaki nutqida jo'nalish va o'rin-payt kelishigi shakllari belgisiz qo'llanilishi mumkin, shu vaqtda uni bosh kelishik shakli deya yanglish fikr yuritmasdan uning belgisiz qo'llangan jo'nalish va o'rin-payt kelishigi shakllari ekanligini bilishimiz zarur.

Chiqish kelishigi. Nurota tuman o'zbek shevalarida chiqish kelishigining bir qancha shakllari mavjud, ular so'zlarning o'zak va negizlari qattiq yoki yumshoq holatga ega bo'lishi bilan bog'liqdir: singa kuygannan aytaman, dorog belidan sinadi, toshdan toshqa sakraydi kabi ko'rinishlarda uchratish mumkin. Chiqish kelishigi boshqa kelishik shakllariga nisbatan keyinroq paydo bo'lgan, sababi u nisbatan keyinroq yaratilgan asarlarda ham kamroq uchraydi. Uning o'rniga ham asosan o'rin-payt qo'shimchasi qo'llanilgan. Yodgorliklardagi kabi -din, -tin, -a, -n, -in shakllari



Date: 3rd November-2025

Nurota tuman o'zbek shevalari vakillari nutqida ham faol qo'llaniladi. Masalan, ozimdi haqimdi sendin so'rab keluvchiydim, ovqattin tashqari hichtinga jemadi.

Fe'l so'z turkumi. Fe'l zamonlarini hosil yaqin o'tgan zamon shaklini hosil qilishda –di qo'shimchasi o'rnida – ti qo'shimchasidan foydalaniladi. Ushbu qo'shimcha fe'l o'zagi jarangsiz undosh bilan tugagan fe'llarga qo'shiladi: aytti, qaytti, qildi ko'makchi fe'li o'rnida qisqargan shaklidan foydalaniladi: unday qildi-uytti, bunday qildi- biytti, shunday qildi- shuytti kabi. O'tgan zamon hikoya fe'lida esa aytibidim, ko'ribidim, bilibidim kabi shakllarda qo'llaniladi. O'tgan va kelasi zamon fe'llarining hosil qilinish bo'yicha shevalar bir-biridan keskin farq qilmaydi. Ma'lumki, bunday fe'llar ravishdosh va sifatdosh shakllari va tuslovchi affikslarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Hozirgi zamon fe'llarida tuslovchi affiksdan oldin qo'shiladigan zamon ko'rsatkichlari shevalarda turlicha bo'ladi. Masalan, adabiy tildagi –yapti shakli bu shevada -ayapti tarzida aytiladi, borayapti, aksincha, ba'zi unli bilan tugagan fe'llarda esa fe'l oxiridagi bir unli tushirib talafuz qilinadi, qaryapti. Fe'ning vazifa shakllarida ham shevaga xos xususiyatlar ko'zga tashlandi. Sifatdoshning hozirgi zamon shakli qo'shimchlari hisoblangan-yotgan aytogan sifatdoshlari o'rnida ushbu shevada -yoqan, ayopqan shakllari qo'llaniladi: boryapqan uyimizda qiz borma, aytayapqan gapingdi tuzi borma kabi. Sifatdoshning o'tgan zamon shakllari hisoblangan –gan shakli o'rnida asosan ushbu shevada –kan, -qan, -g'an shakllaridan foydalaniladi. Aytqan gaping, o'tkan kuning, borg'an joying kabi. Bu sheva vakillari og'zaki nutqida asosan shu 3ta qo'shimchalardan keng foydalaniladi. -g'an o'tgan zamon sifatdoshi qo'llanilgan fe'l asosidagi oxiri qo'llangan tovush tushib qoladi: olgan- og'an, kelgan- keg'an, qilgan- qig'an kabi. –gan adabiy tilda qo'llaniluvchi qo'shimchasi esa bu sheva vakillari tomonidan deyarli ishlatilmaydi.

Ko'plik qo'shimchasi –lar ham bu shevada ba'zi o'zgarishlarga uchraydi, oxiri n, d, t va shu kabi bir qator undosh tovushlar bilan tugagan so'zlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda, qo'shimcha shu so'z tugagan harf bilan boshlandi. Masalan, otlar-ottar, donlar-donnar, tutlat-tuttar kabi va hakozi. Ko'plikni bildirish uchun so'zlar oldidan bir qancha so'zlardan ham foydalaniladi. Bular: bir galam, bir toloy, bir dunya va boshqalar.

Egalik qo'shimchalari ham bu shevada sal farqliroq holda ishlatiladi. Undosh bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, so'z oxiridagi undash deyarli bilinear-bilinmas tarzda tallafuz qilinadi. Masalan, kitobim- kitaim, buzog'im- buzoim tarzda. Undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiluvchi unli boshlandigan egalik qo'shimchalari, adabiy tildagidan farq qilgan holda qisqa i bilan boshlandi: -im, -ing, imiz, -ingiz singari.

Fe'llardagi ko'makchi fe'llar ham ushbu sheva vakillari tomonidan keng qo'llaniladi. Ayrimlari ko'makchiligini saqlab qolgan holda aniq szilib tursa, ayrimlari esa umuman ko'makchiligini yo'qotib qo'shimchaga aylanib qolgan. Masalan, kelib yuribdi- kep juripti, borib yotibmiz- borib jotippiz, asosan yotmoq ko'makchi fe'lidan keng foydalanish ko'zga tashlanadi. Kelib yotibdimi-kebotiptimi, qilib yotibdimi- qipotiptimi, qipjotiptimi tarzida elliziyaga uchraydi.



Date: 3rd November-2025

Hozirgi zamon qo'shimchasidan keyin kelgan I shaxs birlik va ko'plikdagi shaxs-son qo'shimchalar zamon qo'shimchasi-yap oxiridagi p tovushiga muvofiq qo'shimchalar p tovushi bilan boshlandi: bormoq

I. Boryappan

I. Boryasppiz

II. Boryapsan

II. Boryapsiz

III. Boryapti

III. Boryaptilar

-k shaxs-son qo'shimchasi o'rniga -q qo'shimchasining qo'llanilishi: bordik-bordiq, qaytdik-qoyttiq kabi.-ylik, -aylik qo'shimchalari o'rnida -yik qo'shimchasi qo'llaniladi.

So'roq-taajjub yuklamasi bo'lgan –mi shakli ham ba'zi fe'llarga qo'shilganda o'z shaklini o'zgartiradi: boryaptimi- boryappa, kelyaptimi- kelyappa, aytdimi- aytimma, demak, ushbu yuklama fe'l oxiridagi tovushga qarab –ma yoki –pa tarzida aytiladi. –chi yuklamsi esa gapning mazmuniga qarab ba'zida qisqa i bilan, ba'zan juda cho'ziq i bilan qo'llaniladi.

Sheva leksikasini o'rganish orqali uning lug'aviy boyligini hamda ko'plab yangi so'zlarni aniqlash mumkin. Dialektal so'zlarni leksek-semantik jihatdan ma'noviy guruhlariga bo'lish shuni ko'rsatadiki, Nurota shevasidagi dialektal so'zlarning bir qancha ma'noviy guruhlariga oid dialektizmlar faol qo'llanadi. Shevalarni va ularning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish bilan tilimizning hozirgi ahvoli hamda tarixini, xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini ham bilib olish mumkin.

Insonning madaniy saviyasi uning nafaqat o'zini tutishi, yurish-turishi bilan, balki samimiy shirin kalomi va chiroyli so'zlay olishi bilan baholanadi. Shuning uchun ham to'liq, dona-dona va ravon so'zlaydigan kishilarga hamma havas ko'zi bilan qaraydi. Binobarin, bunday xususiyatga ega insonda shak-shubhasiz tilga hurmat va e'tibor shakllangan. O'zini, o'zligini hurmat qilgan inson esa bu masalada ancha ehtiyotkoridir. Biz turkiy til nazmida baralla qalam tebratgan, uning mazmunan bor latofatini dunyoga ovoza qilgan ajdodlar avlodimiz. Shunday ekan, millat ko'zgusiga aylangan ona tilimizni asrab-avaylaylik!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev. Insonparvarlik,ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. – Tasvir nashriyot uyi 2017-yil.
2. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent-“O'zbekiston” - 2016-yil 14-bet
3. Hojiyev A. “O'zbek tili iboralar lug'ati “ T., 1993, 42-bet.
4. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. T., 2013. 3.

